ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK ANTROPONIMIKASIDA ISM TANLASH MASALALARI

To‘ychiyeva Zulayxo Hamroqo‘lovna,
Guliston davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
Yerjanova Saule Baymurzayevna,
Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti,
filologiya fanlari doktori

Atoqli otlar o‘z genezisiga ko‘ra tilning eng qadimiy, yashovchan hamda turg‘un qatlamlaridan biridir. Ismlar o‘tmishda ko‘p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida yetib kelgan ulkan, madaniy va ma’naviy qimmatga molik bo‘lgan lug‘aviy qatlamdir. Ismlarda, ularning yaratilishida o‘zbek xalqining o‘tmishi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, urf-odatlari, e’tiqod va ishonchi o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, kishilarga qo‘yilgan ismlar ularni tanlagan shaxslar faoliyati, oilalar davrasidagi izlanishlar mahsulidir. Bolaga ism berishni ham odatda ota-onalar, oilaning yaqin kishilari amalga oshiradi. Binobarin, ismlarni yaratuvchilar, uni tanlovchi, iste’molga kirituvchilar respublikamizning turli mintaqalarida yashaydigan kishilardir. Shu sababli ism berish, ism tanlash, ism rusumi (modasi) hududlararo, oilalararo farqlanadi. Bir guruh ismlar bir hududda sevimli bo‘lsa, ikkinchi guruhi boshqa hududlar uchun sevimlidir. Chunki har bir hududda ismni tanlash udumi va ism tanlash didi farqlanadi. Bunday farqlarning hududiy – milliy rasm-rusumlar, madaniy-ma’naviy, diniy dunyoqarashlar bilan bog’liq omillari mavjud. Shunga ko‘ra, o‘zbek ismlari iste’molga kiritilishi, nomlashda qatnashishi darajasiga ko‘ra farqli tomonlarga ega. Bu ismlarning qo‘llanish, yashash xususiyatini ko‘rsatuvchi funktsional tomonlari hisoblanadi. O‘zbek kishi ismlarini tadqiq etishda ularning qo‘yilishiga sabab bo‘lgan holatlar masalasi umumiy onomastika nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan nisbatan kam o‘rganilgan. Bu masala atrofida o‘zbek ismlari majmuini to‘plash, nashr etish munosabati bilan ilova qilingan tadqiqot ishlarida ayrim mulohazalar uchraydi. Xususan, ism qo‘yishda farzandning sog‘lom o‘sib ulg‘ayishi, baxtli hayoti, kuchli – qudratli bo‘lishi, go‘zalligi, xulq – atvorining yaxshi bo‘lishi kabi orzu – umidlari asosiy motivatsiya sifatida qayd etilgan[1].

Kishi ismlari nominatsiyasi (sodda qilib aytganda, kishiga ism qo‘ymoqlik) inson tomonidan uzluksiz ravishda tabiat va jamiyatni o‘rganish, o‘zi uchun undan manfaatdorlik izlash jarayonidir[2]. Tabiat va jamiyat haqidagi bilimlardan tashqari, kishi ismini qo‘yishda muayyan jamiyatning ma’naviy dunyosi ham alohida rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘zbek ismlarining mazmun doirasi tasnifiy turlarga boyligi va xilma – xilligi tadqiqotlarda alohida qayd etilgan[3].

Atoqli otlar o‘zbek tili lug‘aviy boyligining tarkibiy qismlaridan biridir. O‘zbek onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan soha bo‘lib, o‘zbek antroponimlari, toponimlari, gidronimlari, etnonimlari tadqiqi bo‘yicha E.Begmatov, N.Husanov, A.Gafurov, Ya.Menajiyev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov, S.Rahimov, R.Xudoyberganov kabi olimlar tomonidan anchagina ishlar amalga oshirilgan. Ular orasida imslarning motivatsiyasi bilan bog‘liq fikr-mulohazalar ham bor. Shular asosida maqolada o‘zbek antroponimlarining leksik-semantik va motivatsion ma’nolarini, sotsiolingvistik jihatlarini tadqiq qilish va uning natijalarini ilmiy umumlashtirish maqsadi qo‘yilgan. Shunga muvofiq maqolada o‘zbek antroponimiyasining semantik xususiyati, motivatsion asoslari, o‘zbek ismlarining nominativ, struktural, funktsional, sotsiolingvistik o‘ziga xos tomonlari kuzatilib, antroponimlarga xos lisoniy, etnolingvistik, sotsiolingvistik belgilar aniqlandi.

Ularni o‘rganishda leksik-semantik, struktur kabi lingvistik va analiz, sintez kabi umumiy metodlardan foydalanildi. Ma’lumki, har qanday nomning, jumladan, ismning paydo bo‘lishiga omil bo‘lgan sabab, asos fanda motiv, narsa va hodisalarni muayyan motivlar asosida nomlash – nominatsiya deb yuritiladi. Nomning muayyan motivga egaligi motivlanganlik, motiv uchun asos bo‘lgan belgi, holat, tushuncha

[1] Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Т.: Шарқ, 1991. – Б. 3
[2] Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 236
[3] Никонов В.А. Современный именник узбеков // Сб. Вопросы ономастики. – Самарканд. 1971. – С. 3-14

“motifikator”, “motivema” deb yuritiladi[1].

Kishi ismlari tilning muhim qatlami bo‘lib, ularda ism egalariga nisbatan turli – tuman munosabatlar mujassamdir. Bu o‘rinda avvalo kishi ismlarining til birligi ekanligi, unda muayyan ma’no ifodalanishi, nihoyat, ushbu ma’noning ayrim olingan shaxs bilan bog‘liq so‘z – tushuncha – subyekt doirasidagi munosabatlar chizig‘i muhimdir.

Kishi ismlari (antroponimlar)ning katta turkumini birlamchi ashyoviy ma’noga ega so‘zlar tashkil qiladi. Masalan, Temir/Temur, Po‘lat/Po‘lod, Olmos, Xanjar, Qilich, O‘roq, Bolta, Oy, Quyosh, Oltin, Kumush va boshqalar. Ularning birlamchi ma’nolari maydoni tabiatda va turmushda mavjud narsalar to‘g‘risidagi tushunchalardan tashkil topgan. Ularning kishi ismi sifatida amal qilishida, avvalo, tushuncha, so‘ngra obyekt va nihoyat ism egasiga o‘tgach, asl lug‘aviy ma’nodan ajralish, ayrim subyekt bilan bog‘liq atoqlilik vazifasi yuzaga keladi. So‘zning birlamchi lug‘aviy ma’nosi neytrallashib, o‘z kuchini yo‘qotadi va ismning ijtimoiy ma’no ifodasi bilan lug‘aviy ma’no o‘rtasida “uzilish” ro‘y beradi. Shunday holatni Ferdinand de Sossyur so‘zning tashqi qiyofasi va amaldagi ma’no tashuvchiligi o‘rtasidagi binar hodisa deb baholagan edi. Ya’ni so‘zning birlamchi ma’nosi predmet yoki hodisani aynan bildirsa, ikkilamchi ma’nosi ism egasini ko‘zda tutadi. Bu tilshunoslikda turdosh otning atoqli otga aylanishi sifatida ham talqin qilinadi.

Tahlil asosiga ismning birlamchi lug‘aviy ma’nosi bilan antroponimik atoqli otlik holati o‘rtasidagi semantik munosabatlar tadriji masalasini qo‘yish ba’zi nazariy umumlashmalar uchun qulay imkoniyat beradi. Zero, ism qo‘yishning qadimdan davom etib kelayotgan an’anaviy usullarida semantik asos ashyoviy tushunchadan boshlanib, rivojlanish davomida ushbu asosdan “ajralishi” kuzatiladi. Oqibatda, kishi ismi jaranglaganda, birlamchi ma’nodan uzilgan subyekt ma’nosi faollashadi. Bu holat aksariyat ismlar uchun xosdir. Masalan, Go‘zal ismli qizning nomi ishlatilganda “go‘zal, suluv, chiroyli” kabi birlamchi ma’noga ishora deyarli so‘nadi. Ya’ni shu nomli kishi so‘zning birlamchi ma’nosida ko‘zda tutilgan xislatga albatta ega, degani emas. Qahramon ismining birlamchi ma’nosi va uning subyekt bilan munosabati to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Bu o‘rinda ism tanlashga asos bo‘lgan holat muhimdir.

Xuddi shu usulda ayrim o‘zbek ismlarining bosh lug‘aviy ma’nolari va antroponimik amaliy holatini ko‘rib chiqamiz: Arslon (-bek, -boy), Bo‘ri (-boy), Charos, Binafsha, Rayhon, Qunduz (-oy, -xon, -bek) kabi ismlarda bir qarashda lug‘aviy ma’no bilan assotsiativ aloqa bordek ko‘rinadi. Biroq, ismdan foydalanish amaliyotida ushbu bog‘liqlik sezilmaydi, neytralizatsiyaga uchraydi.

Kishi ismlarining motivatsion tahlilida turli emotsional (his – tuyg‘uga xos) omillarning ekspressiv ta’sirchanligiga e’tibor qaratish masalaning mohiyatiga yaqinlashtiradi. Bu haqda A.Gumboldtning “So‘z o‘zi atagan predmetning vakolati bo‘lavermaydi”, – degan jumlasi ayni masalaga daxldordir. Chunki, motivatsion yaxshi “ta’minlangan” ismlarning subyektlari o‘zlari bilan bir umr birga bo‘lgan ismlariga munosib bo‘lmaydigan holatlar ko‘p uchraydi. Masalan, Go‘zal ismli qiz-ayol aynan “xushro‘y, go‘zal, suluv” bo‘lmasligi mumkin. Ba’zan Shahlo ismi qiyiq ko‘z, bodomqovoq qizlarga qo‘yiladi. Botir ismli odam, albatta, botir bo‘lishi lozim, degani emas va hokazo.

Ismlarning motivatsiyasining tahlili shuni ko‘rsatdiki, antroponimik motivatsiya davrga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Ijtimoiy hayot, siyosiy jarayonlar, ma’naviy munosabatlar ism tanlashga ta’sir qiladi va bu jarayonda o‘z izini qoldiradi. Bunda “...ismlarga ismdan foydalanuvchi jamiyatning munosabati muhimdir”[2]. Ushbu to‘xtamdan kelib chiqib, ism tanlashda uchragan ayrim xarakterli holatlarga e’tibor qarataylik:

Oktabr, Hujuma, Kolxozbek, Kommuna, Gagarin, Vladlen, Mark, Stalina kabi ismlar o‘z davri siyosiy voqealari zaminida motivatsiyalashgan. XX asr so‘nggida ma’naviy hayotimizda yuz bergan o‘zgarishlar o‘zbek ismlari motivatsiyasiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, islom an’analariga muvofiq ism tanlash holatlarining tez-tez uchray boshlashi kuzatilmoqda. Tarkibida Muhammad ismi bo‘lgan qo‘shma otlar (Muhammadqodir, Nurmuhammad, Muhammadnodir, Muhammadyusuf va boshqalar), Nur-, -nur komponentli ismlar shular jumlasidan. Keyingi paytlarda qiz bolalarga Xadicha, Oysha ismlarini qo‘yish tez – tez uchramoqda. Holbuki, bu ismlar eskirgan ismlar deb amalda uchramay qolgan edi[3].

Antroponimikada nominatsiya va motivatsiya hodisalari o‘zaro uzviy aloqador, doimiy harakat – o‘zgarishdagi hamda davrdan-davrga takomillashib boruvchi kategoriyalardir. Biroq, tildagi har qanday so‘z ism vazifasiga o‘tavermaydi. So‘z ism vazifasida qo‘llanishi uchun ism qo‘yish jarayonida ko‘zda tutilayotgan maqsad va motivga, sotsiolingvistik talabga javob berishi kerak. O‘zbek antroponimikasida ot, sifat va fe’l kabi so‘z turkumlaridan hosil qilingan ismlar asosiy o‘rin tutadi. Erkaklar va ayollarga beriladigan ismlarda bir xil motivli nomlar mavjud. Ammo ushbu

[1] Наумов В., Ген. Явление мотивации слов в системе диалекта (лексический аспект). – Томск, 1985. – С. 23

[2] Гумбольдт В.А. О развитии строения человеческих языков. Хрестоматия по истории языкознания XIX –XX вв. -М.: Наука, 1977. – С. 241.

[3] Никонов В.А. Современный именник узбеков // Сб. Вопросы ономастики. – Самарканд. 1971. – С. 3-14

motivni ifoda etayotgan ismning apellyativ asosida ma’lum farqlanishlar mavjud. Mana shu farq ba’zi erkaklar ismining ayollarga berilmasligida, aksincha, ayollarga beriladigan ba’zi ismlarning erkaklarga qo‘yilmasligida ko‘rinadi. Masalan, Nargiza, Mehriniso, Umida – ayollar ismi, ammo Ravshan, Botir, Jasur erkaklar ismidir. Demak, erkaklar va ayollar ismi ismni hosil qilgan apellyativlarga ko‘ra farqlanadi. Bu esa kishi imslarining qo‘yilish ma’nolari tanlash asoslarini genderologik asosda dolzarb masala bo‘lib, antroponimik motivatsiya jarayoniga yanada chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi. Zero, kishi ismlari bu jihatdan ayniqsa rang-barang motivatsion ma’nolari bilan xarakterlanadi. Biroq bu alohida tadqiqot mavzusidir.

Rezyume. Onomastika, uning antroponimika yo‘nalishi O‘zbekistonda hozirga qadar ismlar majmuining statistik jihatlariga alohida e’tibor berib kelmoqda. Ismshunoslikning nazariy aspektlari ustidagi tadqiqotlar endigina boshlanayotgani ushbu maqolaning dolzarbligini va maqsadini belgilaydi.

Rezume. Up to date the scientific research in the area of onomastics in whole and in Uzbek anthroponymy in particular, was reduced to full statistical systematization of names. As for theoretical aspects of antroponymy there arise investigations which do not separate cover all the completeness of the problem yet.

Резюме. До настоящего времени научные изыскания в области ономастики в целом, и в узбекской антропонимике в частности, сводились к полной статистической систематизации имен. Что касается теоретических аспектов антропонимики, только сейчас появляются отдельные исследования, которые не охватывают всю полноту проблемы.